Konstitutsiya qabul qilinganligining 26 yilligi keng nishonlanmoqda

2018-yil 6-dekabr kuni O’zbekiston Fanlar akademiyasi Temuriylar tarixi davlat muzeyi, Xalqaro Amir Temur xayriya jamoat fondi, “Milliy tiklanish” demokratik partiyasi Toshkent shahar Kengashi bilan hamkorlikda O’zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganligining 26 yilligiga bag’ishlangan “Konstitutsiya - qonunchiligimiz asosi” mavzusida ma’naviy-ma’rifiy tadbir o’tkazildi.

Tadbirni Temuriylar tarixi davlat muzeyi direktori, Xalqaro Amir Temur xayriya jamoat fondi raisi Xurshid Fayziyev ochib berdi. Tadbirda muzey xodimlari, O’zMTDP Toshkent shahar Kengashi raisi Otabek Jiyanboyev, Xalqaro Amir Temur xayriya jamoat fondi raisi o’rinbosari To‘lqin Hayit, Toshkent shahar Xalq deputatlari Yunusobod tumani kengashi deputatlari, O’zbekiston nogironlar jamiyati Toshkent shahar bo’limi raisi Feruzaxon Vosiqova, Toshkent davlat yuridik universiteti professor o’qituvchilari, O’zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi harbiy-texnik instituti vakillari qatnashdilar.

Tadbir yakunida “Kitoblar viktorinasi” va muzey bo’ylab ekskursiyalar uyushtirildi.